

KONFERENSIYALAR.COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**XVI RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

AVGUST, 2026

ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.com>



Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XVI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 16-son (28-avgust, 2026-yil).– 102 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 26-avgust

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi XVI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

IQTISODIYOT FANLARI

RAQAMLI MARKIROVKA TIZIMI – SOLIQ MA'MURIYATCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISH VA YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISH OMILI SIFATIDA

Jurayev Axmad Sayitnazar O'g'li

Denov tadbirkolik va pedagogika instituti

“Moliya va bank” ishi kafedrası 2-kurs doktoranti

Email: jorayevahmad446@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli markirovka tizimining mazmuni va uning soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirishdagi o'rni tahlil qilingan. Xususan, O'zbekistonda joriy etilayotgan “Asl Belgisi” milliy markirovka tizimi doirasida ishlab chiqaruvchi va import qiluvchi subyektlar sonining o'sish dinamikasi, markirovkalangan mahsulotlar hajmining kengayishi hamda tizim qamrovining bosqichma-bosqich oshib borishi statistik ma'lumotlar asosida o'rganilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli markirovka tizimi mahsulotlar harakatining shaffofligini ta'minlash, noqonuniy aylanmani qisqartirish va soliq tushumlarini, xususan aksiz solig'i tushumlarini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, maqolada ushbu tizimning iqtisodiyot tarmoqlariga chuqur kirib borayotganligi hamda uning soliq ma'muriyatchiligi samaradorligini oshirishdagi roli asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: raqamli markirovka, soliq ma'muriyatchiligi, “Asl Belgisi”, aksiz solig'i, yashirin iqtisodiyot, raqamli nazorat, tovarlar harakati.

DIGITAL MARKING SYSTEM – AS A FACTOR IN IMPROVING TAX ADMINISTRATION AND REDUCING THE SHADOW ECONOMY

Jurayev Axmad Sayitnazar ogli

Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy

2nd-year doctoral student, Department of Finance and Banking

Annotation. This article analyzes the content of the digital marking system and its role in improving tax administration. In particular, within the framework of the national “Asl Belgisi” marking system being implemented in Uzbekistan, the study examines the growth dynamics of producers and importers, the expansion of marked product volumes, and the gradual increase of the system's coverage based on statistical data. The research results indicate that the digital marking system plays a significant role in ensuring transparency in the movement of goods, reducing illegal circulation, and increasing tax revenues, particularly excise tax revenues. The article also demonstrates the system's deep penetration into economic sectors and its role in enhancing the efficiency of tax administration.

Keywords: digital marking, tax administration, “Asl Belgisi”, excise tax, shadow economy, digital control, movement of goods.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ydif-y2026v2i16/n08>

Kirish

Raqamli iqtisodiyot sharoitida tovarlar aylanmasining hajmi va murakkabligi ortib borayotganligi ularni samarali nazorat qilish mexanizmlarini takomillashtirishni talab etmoqda. Ayniqsa, yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish, kontrafakt mahsulotlarga qarshi kurashish hamda soliq tushumlarini barqaror oshirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Shu nuqtai nazardan, raqamli markirovka tizimi mahsulotlarga maxsus identifikatsiya kodlarini biriktirish orqali ularning ishlab chiqarishdan tortib yakuniy iste'molchigacha bo'lgan harakatini real vaqt rejimida kuzatish imkonini beruvchi samarali vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu tizim tovarlar aylanmasining shaffofligini ta'minlash bilan birga, soliq organlarining nazorat funksiyalarini kuchaytiradi.

O'zbekistonda raqamli markirovka tizimi "Asl Belgisi" milliy tizimi orqali bosqichma-bosqich joriy etilib, uning qamrovi va ishtirokchilari soni yildan-yilga ortib bormoqda. Mazkur jarayon soliq ma'muriyatchiligini modernizatsiya qilish va raqamlashtirish yo'nalishidagi muhim islohotlardan biri hisoblanadi.


Shu bois, mazkur maqolaning maqsadi raqamli markirovka tizimining rivojlanish dinamikasini tahlil qilish hamda uning soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirishdagi rolini baholashdan iborat.

Tahlil va natijalar

Raqamli iqtisodiyot sharoitida soliq ma'muriyatchiligining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida tovarlarning ishlab chiqarilishidan boshlab yakuniy iste'molchigacha bo'lgan butun zanjirini kuzatish imkonini beruvchi zamonaviy mexanizm ya'ni, raqamli markirovka tizimi O'zbekistonda bosqichma-bosqich joriy etilib kelinmoqda.

Raqamli markirovka - bu mahsulotlarga maxsus identifikatsiya kodlari (Data Matrix yoki QR kodlar) biriktirish orqali ularning harakatini real vaqt rejimida monitoring qilish tizimidir. Mazkur tizim yordamida har bir mahsulotning kelib chiqishi, ishlab chiqaruvchisi, import qiluvchisi va sotilish jarayoni to'liq nazorat qilinadi. O'zbekistonda bu tizim asosan "Asl Belgisi" milliy markirovka tizimi orqali amalga oshiriladi.

Raqamli markirovka tizimining O'zbekistonda bosqichma-bosqich joriy etilishi natijasida ushbu tizimda ishtirok etuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlar sonida sezilarli o'sish kuzatilmoqda. Xususan, ishlab chiqaruvchilar va import qiluvchilar sonining dinamikasi quyidagi 1- rasmda keltirilgan.



1-rasm. Markirovka tizimida ishtirok etuvchi korxonalar soni.[6]

Mazkur jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda raqamli markirovka tizimining bosqichma-bosqich joriy etilishi natijasida ushbu tizimda ishtirok etuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlar sonida barqaror va yuqori o'sish tendensiyasi kuzatilmoqda. Xususan, ishlab chiqaruvchi korxonalar soni 2022-yildagi 166 tadan 2025-yilda 1 097 taga yetib, qariyb 6,6 baravarga oshgan. Bu esa mahalliy ishlab chiqaruvchilarning raqamli nazorat tizimlariga integratsiyalashuvi jadallashganligini va ularning faoliyati ustidan shaffof monitoring mexanizmlari keng joriy etilayotganligini anglatadi. Shu bilan birgalikda raqamli markirovka soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirishning muhim vositasi hisoblanadi.

Import qiluvchi subyektlar sonida esa yanada yuqori o'sish sur'atlari kuzatilgan bo'lib, ular 2022-yildagi 300 tadan 2025-yilda 3 495 taga yetib, 11 baravardan ortiq oshgan. Mazkur holat, bir tomondan, tashqi savdo operatsiyalarini raqamlashtirish va bojxona hamda soliq organlari o'rtasidagi axborot almashinuvi samaradorligining oshganligini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan, noqonuniy import va "soya" iqtisodiyoti ulushini qisqartirishga qaratilgan institutsional chora-tadbirlarning ijobiy natija berayotganidan dalolat beradi.

Raqamli markirovka tizimida ishtirok etuvchi korxonalar sonining ortishi bevosita markirovka qilinayotgan mahsulotlar hajmining kengayishiga olib kelmoqda. 2022–2025-yillar davomida markirovkalangan mahsulotlar soni 33 290 tadan 128 700 taga yetib, qariyb 3,9 baravarga oshgan. Mazkur o'sish raqamli markirovka tizimining milliy iqtisodiyotda tobora keng joriy etilayotganligini, tovarlar harakatining shaffofligi oshib borayotganligini hamda soliq ma'muriyatchiligi samaradorligini ta'minlashda muhim instrumentga aylanib borayotganligini tasdiqlaydi.

Raqamli markirovka tizimi samaradorligini baholashda nafaqat markirovkalangan mahsulotlar soni, balki tizim qamrab olgan tovar guruhlari sonining o'zgarishi ham muhim ahamiyatga ega. Chunki aynan tovar guruhlari qamrovining kengayishi ushbu tizimning iqtisodiyot tarmoqlariga chuqur kirib borayotganligini aks ettiradi (1-jadval).


1-jadval.

Markirovka tizimi qamrab olgan tovar guruhlari soni[7].

Yil	Tovar guruhlari
2021	5(tamaki va alkogol mahsulotlari,pivo mahsulotlari,maishiy texnika,ikkilamchi qadoqdagi dori mahsulotlari)
2024	6(+ suv va salqin ichimliklar)
2025	8(+ mineral o'g'itlar va o'simliklarni himoya qilish uchun foydaniladigan kimyoviy vositalar: biologik faol qo'shimchalarni (BFQ))

Mazkur ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, dastlab raqamli markirovka tizimi asosan yuqori riskli va aksiz tovarlariga nisbatan joriy etilgan bo'lsa, keyingi yillarda uning qamrovi sezilarli darajada kengaygan. Xususan, 2021–2023-yillarda tovar guruhlari soni o'zgarmagan bo'lsa-da, 2024-yildan boshlab yangi toifalar, jumladan ichimliklar sektori tizimga kiritilgan. 2025-yilda esa qamrov yanada kengayib, qishloq xo'jaligi va sog'liqni saqlash bilan bog'liq mahsulotlar ham markirovka tizimiga jalb etilgan. Bu holat raqamli markirovka tizimining dastlab tor yo'nalishdan boshlab, keyinchalik iqtisodiyotning turli tarmoqlarini qamrab oluvchi kompleks nazorat mexanizmiga aylanib borayotganligini ko'rsatadi.

Raqamli markirovka tizimining joriy etilishi nafaqat mahsulotlar aylanmasining shaffofligini oshirishga, balki soliq tushumlarining, xususan aksiz solig'i bo'yicha tushumlarning ortishiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu bog'liqlikni baholash maqsadida aksiz solig'i tushumlari dinamikasi quyida (2-rasm) keltirilgan.



2-rasm. Aksiz solig'i tushumlar dinamikasi.[6]

2021–2025-yillar davomida aksiz solig'i tushumlari barqaror o'sish sur'atlarini namoyon etdi. 2021-yilda ushbu tushumlar 13 086,5 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda ular 13 455 mlrd so'mga yetib, yil davomida 2,8 foizga oshdi. Bu o'sish davrning dastlabki barqaror bosqichini aks ettiradi va tizimga korxonalar va mahsulotlar asta-sekin jalb etila boshlagani bilan izohlanadi.

2023-yilda aksiz tushumlari sezilarli darajada ortib, 15 834,4 mlrd so'mga yetdi va 2022-yilga nisbatan 17,7 foizga oshdi. Bu o'sish markirovka tizimi joriy etilgan mahsulotlar sonining kengayishi va tovarlar harakatini shaffof nazorat qilishning samaradorligini aks ettiradi. 2024-yilda tushumlar yanada oshib, 19 060 mlrd so'mni tashkil qildi, bu 2023-yilga nisbatan 20,4 foizlik o'sishga to'g'ri keladi. Mazkur yil aksiz tushumlarining eng tez o'sish sur'atlarini ko'rsatgan davr sifatida qayd etilishi mumkin.

2025-yilda tushumlar 20 015 mlrd so'mga yetib, 2024-yilga nisbatan o'sish sur'ati 5 foizni tashkil etdi. O'sish sur'ati nisbatan sekinlashgan bo'lsa-da, barqaror ijobiy dinamika saqlanib qoldi. Shu tarzda, 2021–2025-yillar davomida aksiz solig'i tushumlari 13 086,5 mlrd so'mdan 20 015 mlrd so'mga yetib, qariyb 1,53 baravarga oshdi.

Ushbu tahlil shuni ko'rsatadiki, raqamli markirovka tizimi joriy etilishi va mahsulotlar harakatini real vaqt rejimida nazorat qilish aksiz solig'i tushumlarini sezilarli darajada oshirishga xizmat qilgan. Ayniqsa, tizimning qamrovi kengaygan yillarda tushumlar keskin o'sgan, bu esa markirovka tizimining soliq ma'muriyatchiligidagi samaradorligini isbotlaydi.

Xulosa

Mazkur tahlil shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda raqamli markirovka tizimi ("Asl Belgisi" milliy markirovka tizimi) bosqichma-bosqich joriy etilishi orqali mahsulotlarning ishlab chiqarilishidan yakuniy iste'molchigacha bo'lgan harakatini real vaqt rejimida kuzatish imkoniyati yaratildi. Natijada:

Ishtirok etuvchi subyektlar sonining o'sishi – ishlab chiqaruvchi korxonalar 2022–2025-yillarda 166 tadan 1 097 taga, import qiluvchi subyektlar esa 300 tadan 3 495 taga yetib, tizimning keng qamrovli va samarali joriy etilayotganini ko'rsatmoqda.

Markirovkalangan mahsulotlar sonining oshishi – 33 290 tadan 128 700 taga yetib, tizimning milliy iqtisodiyotdagi ahamiyati va tovarlar harakatining shaffofligini oshirishdagi roli tasdiqlandi.

Tovar guruhlari qamrovining kengayishi – dastlab yuqori riskli mahsulotlar bilan cheklangan tizim 2025-yilda qishloq xo'jaligi va sog'liqni saqlash mahsulotlarini ham qamrab oldi, bu esa raqamli markirovka tizimining iqtisodiyotning turli tarmoqlariga chuqur kirib borayotganini ko'rsatadi.

Soliq tushumlariga ta'sir – aksiz solig'i tushumlari 2021–2025-yillarda 13 086,5 mlrd so'mdan 20015 mlrd so'mga oshib, tizimning soliq ma'muriyatchiligidagi samaradorligini aniq tasdiqlaydi. Ayniqsa, tizim qamrovi kengaygan yillarda tushumlar sezilarli darajada oshgan.

Shunday qilib, raqamli markirovka tizimi nafaqat mahsulotlar harakatini nazorat qilish va noqonuniy importni kamaytirish, balki soliq tushumlarini barqaror oshirish va iqtisodiy faoliyatning shaffofligini ta'minlashda muhim instrument sifatida xizmat qilmoqda.

Takliflar

Tizim qamrovini yanada kengaytirish – boshqa iqtisodiyot tarmoqlarini, xususan, chakana savdo va xizmat ko'rsatish sohalarini raqamli markirovka tizimiga jalb qilish.

Axborot tizimlarini integratsiyalash – bojxona, soliq organlari va boshqa monitoring tizimlari o'rtasida ma'lumot almashinuvini avtomatlashtirish va real vaqt rejimida kuzatishni kengaytirish.

Xodimlar malakasini oshirish – korxona va davlat organlari xodimlarini raqamli markirovka tizimi bilan ishlash bo'yicha muntazam o'quv kurslari bilan ta'minlash.

Raqamli nazoratni kengaytirish – yuqori riskli bo'lmagan tovarlar va import mahsulotlarini ham monitoringga kiritish orqali noqonuniy iqtisodiyot ulushini yanada qisqartirish.

Monitoring va statistik tahlil – markirovka tizimi samaradorligini muntazam baholash, statistik tahlillar asosida yangi choralar va optimizatsiya yo'nalishlarini ishlab chiqish.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. OECD (2019), The Role of Digital Platforms in the Collection of VAT/GST on Online Sales, OECD Publishing, Paris, <https://doi.org/10.1787/e0e2dd2d-en>.
2. Meshechkina, R. P., & Yakovlev, V. I. (2023). Implementation of a goods traceability system and its improvement based on digital tools. Economic Problems and Legal Practice, 19(5), 188–195. <https://journals.eco-vector.com/2541-8025/article/view/627012>
3. Xudoyberdiyev.E O'ZBEKISTONDA RAQAMLI MARKIROVKALASHNING TIZIMINING RIVOJLANISHI. (2025). Лучшие интеллектуальные исследования, 40(1), 191-202. <https://scientific-jl.com/luch/article/view/4181>
4. Muxammadov , N. (2025). SOLIQ TIZIMIDA RAQAMLI MARKIROVKALANGAN TOVARLARNI RAQAMLASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI. GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT, 3(11). <https://doi.org/10.5281/zenodo.17609724>
5. Aripova Gulmira Imindjonovna. (2026). RAQAMLI SOLIQ MA'MURCHILIGI ORQALI YASHIRIN IQTISODIYOTNI BARTARAF ETISHDA SOLIQA TORTISH

METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH . TADQIQOTLAR, 79(3), 166-170.
<https://journalss.org/index.php/tad/article/view/18090>

6. Muallif tomonidan soliq qo'mitasining ma'lumotlari asosida ishlab chiqilgan.
7. RAQAMLI MARKIROVKALASH MILLIY AXBOROT TIZIMI <https://crpt-turon.uz/>

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

XVI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2026-yil, avgust

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.

XVI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.

2-jild, 16-son (28-avgust, 2026-yil). – 102 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 26-avgust.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.